

## XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O'RTACHA ISH HAQI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-sentabr holatiga viloyat doimiy aholisining soni **4 040,6** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 86,5 ming kishiga yoki 2,2 %ga ko'paydi. Shundan, 2 298,2 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 56,9 %) va 1 742,4 ming kishi - qishloq joylarida (43,1 %) istiqomat qiladi.

### Viloyat hududi va aholi zichligi

(2023- yil 1- oktabr holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>15.01.1938</b>	<b>6,759</b>	<b>4 040,6</b>	<b>597,8</b>
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	1877 yil	0,149	320,0	2150,5
Qo'qon	X asr	0,306	307,9	1006,2
Quvasoy	14.06.1954 yil	0,264	100,6	381,1
Marg'ilon	X asr	0,041	250,0	6097,6
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926 yil	0,631	227,3	360,2
Qo'shtepa	16.04.1952 yil	0,368	207,7	564,4
Bag'dod	31.12.1964 yil	0,333	231,7	695,8
Buvayda	26.12.1973 yil	0,279	245,9	881,4
Beshariq	29.09.1926 yil	0,774	241,5	312,0
Quva	10.02.1939 yil	0,438	274,5	626,7
Uchko'prik	29.09.1926 yil	0,233	240,4	1031,8
Rishton	09.01.1967 yil	0,307	215,8	702,9
So'x	27.02.1990 yil	0,221	83,2	376,5
Toshloq	12.04.1973 yil	0,243	217,9	896,7
O'zbekiston	17.04.1963 yil	0,543	234,0	430,9
Farg'ona	22.02.1964 yil	0,5637	220,4	390,8
Dang'ara	07.12.1970 yil	0,354	176,1	497,5
Furqat	09.04.1992 yil	0,305	126,5	414,8
Yozyovon	27.12.1980 yil	0,407	119,2	292,9

Farg'ona viloyatining ma'muriy-hududiy tashkil topishi 1938-yilning 15-yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,8 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 foiziga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg'iziston Respublikasining O'sh hamda Batken viloyatlari va g'arbdan Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyatning So'x tumani hamda Farg'ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho'ng'ara qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg'iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Viloyat ma'muriy hududiy bo'linishiga ko'ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 197 ta shahar tipidagi posyolkalar, 1 227 ta aholi yashash punktlari hamda 1 062 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridan tashkil topib, ularda **4040,6** ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma'muriy markazi Farg'ona shahri.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog' tizmalari Farg'ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to'sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo'tadil. Yozi issiq, iyulning o'rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o'rtacha harorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.


### Farg'ona viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2023- yilning 1- oktabr holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>4 040,6</b>	<b>2 298,2</b>	<b>1 742,4</b>	<b>102,2</b>	<b>56,9</b>	<b>43,1</b>
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona	320,0	320,0	0,0	105,3	100,0	0,0
Qo'qon	307,9	307,9	0,0	117,1	100,0	0,0
Quvasoy	100,7	56,6	44,1	102,4	56,2	43,8
Marg'ilon	250,0	250,0	0,0	101,8	100,0	0,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	227,3	170,7	56,6	102,2	75,1	24,9
Qo'shtepa	207,7	79,6	128,1	102,8	38,3	61,7
Bag'dod	231,7	118,5	113,2	102,2	51,1	48,9
Buvayda	245,9	112,7	133,2	102,5	45,8	54,2
Beshariq	241,5	84,7	156,8	101,9	35,1	64,9
Quva	274,5	127,0	147,5	101,9	46,3	53,7
Uchko'prik	240,5	45,6	194,8	99,6	19,0	81,0
Rishton	215,8	137,7	78,1	102,2	63,8	36,2
So'x	83,2	52,6	30,7	102,1	63,1	36,9
Toshloq	217,9	51,3	166,6	102,3	23,5	76,5
O'zbekiston	234,0	107,2	126,8	93,8	45,8	54,2
Farg'ona	220,4	136,2	84,2	98,1	61,8	38,2
Dang'ara	176,1	38,9	137,2	95,7	22,1	77,9
Furqat	126,5	30,1	96,4	102,3	23,8	76,2
Yozyovon	119,2	71,1	48,1	102,2	59,6	40,4

Shaharlar ichida eng ko‘p aholi Farg‘ona shahrida 320,0 ming kishi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 %ga o‘sgan) va tumanlarda eng ko‘p aholi Quva tumanida bo‘lib 274,5 ming kishini tashkil qiladi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 %ga o‘sgan).

### Hududlar kesimida doimiy aholi soninig taqsimlanishi

(2023- yil 1-oktabr holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)




### Yanvar-sentabr oylarida viloyat bo‘yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

<i>Ko‘rsatkichlar</i>	<i>ming kishi</i>		<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>
Tug‘ilganlar	74,0	79,9	25,2	26,6
O‘lganlar	14,1	13,7	4,8	4,6
Nikohlar, <i>mingta</i>	20,9	20,3	7,1	6,8
Ajralishlar, <i>mingta</i>	4,0	4,4	1,4	1,5

## Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

(2023- yilning yanvar-sentabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))



**Tug'ilish darajasi.** 2023-yilning yanvar-sentabr oylari tug'ilganlar soni 79,9 ming kishini tashkil etdi va 2022-yilning shu davriga (74,0 ming kishi) nisbatan 5,9 ming kishiga ko'paydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 26,6 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning Qo'shtepa tumanida 28,1 dan 31,0 promille, Uchko'prik tumanida 28,1 dan 29,7 promillega, Dang'ara tumanida 28,1 dan 30,0 promillega kuzatildi.


**O‘lim darajasi.** 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida o‘lganlar soni **13713** kishini tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (**14107** kishi) nisbatan 394 kishiga kamaudi. Mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil qildi (2022- yil yanvar-sentabr oylarida **4,8** promille).

O‘lganlar sonining kamayishi viloyatimizning ba’zi shahar va tumanida yuz bergan bo‘lib, eng ko‘p o‘lim Farg‘ona shaharda 1291 kishidan 5,4 promille, Quvasoy shaharda 294 kishidan 3,9 promillega kuzatildi, Beshariq tumanida 824 kishidan 4,6 promille, Marg‘ilon shaharda 875 kishidan 4,7 promille, O‘zbekiston tumanida 887 kishidan 5,1 promille.

O‘lganlar umumiy sonining **63,1** %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,3** %i o‘sma kasalliklaridan, **4,2** %i ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, **5,8** %i baxtsiz hodisadan, **4,7** %i nafas olish organlari kasalliklaridan vafot etgan.

### **O‘lganlar umumiy sonining tarkibiy tuzilishi**

*(2023- yilning 1-oktabr holatiga, %da)*



**Nikohlar va ajralishlar.** 2023-yilning yanvar-sentabr oylari shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo‘limlarida **20286** ta nikohlar va **4410** ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 6,8 ta nikoh (2022- yilning tegishli davrida 7,1 ta) va 1,5 ta ajralishlar (2022- yilning tegishli davrida - 1,4 ) to‘g‘ri keladi.

## Yanvar-sentabr oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(birlikda)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Viloyat</b>	<b>20 934</b>	<b>20 286</b>	<b>3 979</b>	<b>4 410</b>
<i>shaharlar:</i>				
Fargʻona	1 516	1 530	542	587
Qoʻqon	1 350	1 428	446	450
Quvasoy	460	454	123	145
Margʻilon	1 308	1 364	278	271
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	1 172	1 187	181	228
Qoʻshtepa	1 085	1 095	155	185
Bagʻdod	1 292	1 241	233	253
Buvayda	1 367	1 281	178	223
Beshariq	995	1 021	161	198
Quva	1 417	1 284	203	254
Uchkoʻprik	1 323	1 292	157	223
Rishton	1 272	1 247	240	257
Soʻx	445	396	58	84
Toshloq	1 088	1 067	153	156
Oʻzbekiston	1 301	1 119	227	225
Fargʻona	1 319	1 257	266	257
Dangʻara	1 027	916	181	172
Furqat	655	547	95	120
Yozyovon	542	560	102	122

**Migratsiya.** Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatga koʻchib kelganlar soni **6919** kishini, shu davr mobaynida koʻchib ketganlar soni esa **8745** kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldigʻi minus **1826** kishiga (2022-yilning shu davrida - minus **2134** kishi) teng boʻldi. Eng katta minus qoldiqlar Beshariq tumani (minus **298**) va Margʻilon shahrida (minus **795**) kuzatildi.


## Yanvar-sentabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>
<b>Viloyat</b>	<b>6 787</b>	<b>6 919</b>	<b>8 921</b>	<b>8 745</b>	<b>-2 134</b>	<b>-1 826</b>
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	2 320	3 305	1 288	1 973	1 032	1 332
Qo'qon	337	171	1051	865	-714	-694
Quvasoy	353	383	245	257	108	126
Marg'ilon	41	16	932	811	-891	-795
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	103	121	340	300	-237	-179
Qo'shtepa	501	357	272	282	229	75
Bag'dod	53	16	360	256	-307	-240
Buvayda	226	120	396	296	-170	-176
Beshariq	160	194	587	492	-427	-298
Quva	119	153	479	459	-360	-306
Uchko'prik	283	120	396	233	-113	-113
Rishton	150	159	351	320	-201	-161
So'x	59	101	29	37	30	64
Toshloq	264	279	311	306	-47	-27
O'zbekiston	338	247	545	415	-207	-168
Farg'ona	611	418	510	800	101	-382
Dang'ara	475	352	371	248	104	104
Furqat	291	291	299	242	-8	49
Yozyovon	103	116	159	153	-56	-37


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 254,8 ming so'mni tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga nisbatan 21,4 % ga o'sdi. Eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shaharda 4 566,9 ming so'mni, Qo'qon shaharda 3 741,1 ming so'mga to'g'ri keldi.

## Yanvar-sentabr oylari davomida oʻrtacha nominal hisoblangan ish haqi (ming soʻmda)



## Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha taqsimlanishi

(2023- yil yanvar-sentabr, qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz ming soʻmda)





O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori miqdori moliya va sug‘urta faoliyatiga to‘g‘ri kelib, 9 533,6 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich qurilishda 3 137,4 sanoatda 3 980,0 va ta‘lim sohasida 2 740,4 ming so‘mdan iborat bo‘ldi.

### **O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi\*\***

(yanvar-sentabr oylari qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming. so‘mda)

	2022-yil	2023-yil	O‘sish sur‘ati %
<b>Viloyat</b>	<b>2 796,5</b>	<b>3 340,4</b>	<b>119,4</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	3 841,2	4 638,3	120,8
Qo‘qon	3 191,2	3 859,0	120,9
Quvasoy	2 787,8	3 313,2	118,8
Marg‘ilon	2 420,9	2 764,9	114,2
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	1 946,6	2 263,8	116,3
Qo‘shtepa	2 402,7	2 793,0	116,2
Bag‘dod	2 537,8	2 751,4	108,4
Buvayda	2 076,3	2 861,0	137,8
Beshariq	2 002,6	2 498,3	124,7
Quva	2 224,5	2 541,2	114,2
Uchko‘prik	2 166,5	2 588,4	119,5
Rishton	2 201,1	2 477,3	112,5
So‘x	2 377,0	2 747,0	115,6
Toshloq	3 082,6	3 563,3	115,6
O‘zbekiston	2 302,0	2 673,4	116,1
Farg‘ona	2 289,3	2 600,3	113,6
Dang‘ara	2 182,9	2 670,0	122,3
Furqat	2 389,7	2 823,8	118,2
Yozyovon	2 465,5	2 772,2	112,4

\*\**(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*